

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
SHARQ FILOLOGIYASI VA FALSAFA FAKULTETI
TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida

G‘ULOMOVA NILUFAR XIKMATILLA QIZI

**“SHE’RIY TARJIMANING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (XITOIY
TILIDAN TARJIMA QILINGAN SHE’RLAR ASOSIDA)”**

5120200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (sharq tillari bo‘yicha)

yo‘nalishi

Bakalavr darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: s.f.n. Sh.Shozamonov

Toshkent – 2014

MUNDARIJA

KIRISH.....	2
I BOB. SHE’RIY TARJIMANING NAZARIY MASALALARI.....	6
1.1. She’r tarjimasining o‘ziga xos xususiyatlari.....	6
1.2. Xitoy tarjimashunoslarining she’riy tarjima nazariyasiga doir qarashlari.....	12
II BOB. XITOIY SHE’RIYATINI TARJIMA QILISHNING O‘ZIGA XOSLIKLARI (davrlarga ko’ra).....	20
2.1. Qadimgi xitoy she’riyati va tarjima. ”Shijing” she’rlar to‘plami.....	20
2.2. O‘rta asrlar xitoy adabiyoti va she’riy tarjima. Tan davri she’riyati.....	28
2.3. Yangi davr xitoy she’riyati va badiiy tarjima	34
XULOSA.....	40
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	42

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so'ng ko'pgina sohalarda izlanishlar olib borish uchun biz yoshlarga katta yo'l ochib berildi. Jumladan hozirda xitoy tilini o'rganishga qiziqish tobora ortib borayotganligi barchamizga ma'lum. O'zbekiston va XXR o'rtasidagi har tomonlama diplomatik munosabatlarimizning rivojlanishi sharq tillaridan biri bo'lgan xitoy tiliga bo'lgan e'tibor, ushbu tilni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj va hoxishning boshqa sharq tillariga nisbatan ortib borayotganligiga sabab bo'lmoqda. Prezidentimiz I.A. Karimovning "Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" deb nomlangan risolalarida g'arb bilan birga sharq mamlakatlari, jumladan Xitoy adabiyotining eng yaxshi namunalarini tarjima qilib, yosh ijodkorlarning kitoblarini davlat hisobidan chop etilishini alohida ta'kidlanganlar. Jumladan, "Qisqacha aytganda, boshqa sohalar qatori adabiyot sohasida ham xalqaro aloqalarni kuchaytirish zarur. Qaysi mamlakatda bizning adabiyotimiz, madaniyatimiz, qadriyatlarimizga hurmat bilan qarashadi, xorijdan biz nimalarni o'rganishimiz mumkin va, o'z navbatida, ularga nimalarni taqdim etishimiz mumkin – bugun bu masalalar xalqaro maydonda o'zligimizni namoyon etishda katta ahamiyatga ega ekanini doimo yodda tutishimiz lozim

Men bu borada G'arb bilan birga Sharq mamlakatlari, jumladan, Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya bilan, Misr, Birlashgan Arab Amirliklari, Quvayt kabi arab davlatlari bilan aloqalarni kuchaytirishni tavsiya etgan bo'lardim"¹ – degan edilar.

Mana bir necha yillardirki xorijiy yozuvchi va shoirlarning asarlarini o'zbek tiliga va o'zbek adabiyoti namunalarini bevosita chet tillarga tarjima qilish orqali xalqimizning boy ma'naviy merosini xorijiy ellarda targ'ib etish, uning badiiy yuksak, chuqur insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan adabiyoti

¹ Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. – T.: O'zbekiston, 2009. – B. 32-33.

bilan jahon xalqlarini oshno etish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda.

Tarjima asarlar asrlar davomida xalqlarning milliy madaniyati, an'analari, urf-odatlar, dunyoqarashi, hayotni anglash falsafasi, tafakkuri, qolaversa, yashash tarzi haqida tasavvur hosil qilishda nihoyatda muhim o'rin egallab kelgan.

Xalqlar jahon adabiyotining shu paytgacha tarjima qilinmagan namunalari tarjimasini kutmoqda. Bu sharafl va mas'uliyatli vazifani yuksak saviyada bajarish uchun dastavval badiiy tarjima sohasida yuzaga kelgan ijobiy tajriba va an'analarni aniq belgilab olish, kamchiliklarni esa to'g'ri anglab, tahlil qilish, badiiy tarjimaning nazariy masalalari bilan yanada jiddiyroq shug'ullanish kerak bo'ladi².

Millatning badiiy tafakkuri oynasi bo'lmish adabiyotini xorijiy tillarga tarjima qilishga qaratilgan ishlarni keng miqyosda amalga oshirish kunning dolzarb masalalaridan biridir. Biz dunyoni qancha tanisak, jahonda bizni ko'proq bilish shuncha yaxshi. Mustaqillik tufayli jahon adabiyotining namunalari asliyatdan tarjima qiladigan avlodning yetishib kelayotganini alohida mamnuniyat bilan ta'kidlamok kerak. Ayniqsa, sharq mamlakatlari, jumladan, Xitoy, Koreya, Yaponiya, Arabiston, Eron davlatlari bilan aloqalar yaxshiligi va ularning madaniyati, urf-odatlar, tarixi, dunyoqarishi bizniki bilan bir muncha o'xshash bo'lganligi sababli ularning nasriy va nazmiy asarlarini tarjima qilish dolzarb masalalardandir.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. She'riy tarjima masalasi bo'yicha juda ham ko'p tadqiqot ishlari olib borilganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. O'zbek tajimashunosligi tamaltoshini qo'ygan G'aybull Salomov o'zining "Tarjimon mahorati" kitobida ana shu masalani keng yoritib bergan. Undan tashqari, T.Jo'rayev, E.Aznaurovalarning "Tarjima san'ati" nomli kitoblari hamda bir qancha mavzu yuzasidan maqolalari chop etilgan. Shuningdek,

² Hamidov X., Salimova Z. O'zbek tilidan turk tiliga she'riy tarjima muammolariga doir. // Sharq tarjimashunosligi: tarixi, hozirgi kuni va kelajagi. – T.: ToshDSHI, 2013. – B. 114.

ToshDSHI Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrası tashabbusi bilan har yili tarjimashunoslik masalalariga bag‘ishlangan Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida olim, o‘qituvchi va yosh tadqiqotchilar tomonidan diqqatga sazovor bir qator mavzular olib chiqilmoqda. Jumladan, she’riy tarjima nazariyasi va amaliyotiga bag‘ishlangan f.f.n. dots. A.Alimbekov, dots. X.Hamidov, f.f.n. dots. A.Karimov, f.f.n. dots. J.Ziyamuhamedov, o‘qituvchi N.Ismatullayeva, tadqiqotchi G.Ziyamuhamedova, magistr D.Sobirovalarning 2013 yilgi anjumanda e‘lon qilingan ishlari katta ahamiyatga molikdir.

Bitiruv malakaviy ishining manbalari sifatida “Tarjimon mahorati” (G‘.Salomov, N.Komilov. Toshkent, 1979), “Tarjima nazariyasi asoslari” (Q.Musayev. Toshkent, 2005) kitoblari, “Sharq tarjimashunosligi: tarixi, hozirgi kuni va kelajagi” ilmiy maqolalar to‘plami (Toshkent, 2013), “Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari: filologiya, falsafa, tarix, iqtisod va siyosat, № 10” ilmiy maqolalar to‘plami (Toshkent, 2013), “Введение в общую теорию перевода” (A.Lilova. Moskva, 1985) qo‘llanmasi, “Shijingga to‘g‘ridan-to‘g‘ri izoh” (李立成 Li Licheng. Xangjou, 1997), “Xitoy madaniyati” (韩鉴堂 Han Jyantan. Pekin, 2003) singari kitob va qo‘llanmalar xizmat qildi.

Mavzuning yangiligi. Mazkur bitiruv malakaviy ishida xitoy tilidan o‘zbek tiliga she’riy matnlar tarjimasi, jumladan Xitoyning qadimgi, o‘rta asr va yangi davr she’riyati tarjima xususiyatlari, davriy jihatdan she’riy janrlarning o‘zgarib, takomillashib borishi bilan tarjima usullarining murakkablashib borishi hamda ular o‘rtasidagi tafovutlar tahlil qilindi.

Mavzuning maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishimizning asosiy maqsadi xitoy tilida yaratilgan she‘rlarni o‘zbek tilidagi tarjima xususiyatlarini ochib berish hamda ayrim she‘rlarni o‘zbek tili asosida qayta yaratishdan iboratdir. Vazifalari esa:

- O‘zbek va xitoy tarjimashunoslarining she’riy tarjima masalalari xususida nazariy qarashlarini o‘rganish;
- Qadimgi, o‘rta asr va yangi davr xitoy she’riyati haqida ma’lumot to‘plash;
- Qadimgi, o‘rta asr va yangi davr xitoy she’riyati namunalarining o‘zbek tilidagi tarjima xususiyatlarini tahlil qilish;
- Xitoy va o‘zbek tillarining leksik, grammatik va stilistik hodisalari o‘rtasidagi uyg‘un hamda tafovutli jihatlarga jiddiy e’tibor qilgan holda ayrim she’rlar tarjimasini qayta yaratishdan iborat.

Ishga oid nazariy va amaliy materiallar tahlilida tavsifiy, qiyosiy-chog‘ishtirma, analiz va sintez **metod**laridan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, boblar o‘z o‘rnida beshta bo‘lim, xulosa va foydalanilgan adabiyotlardan iborat. Ishning umumiy hajmi 43 betni tashkil qiladi.

I BOB. SHE'RIY TARJIMANING NAZARIY MASALALARI

1.1. She'r tarjimasining o'ziga xos xususiyatlari

She'r – badiiy ijodning his-tuyg'ularga boy eng nafis namunasidir. She'riyatda xalqning roli, madaniy taraqqiyot darajasi, o'ziga xosligi, tilining qudrati, iste'dod va iqtidorining mavqei mujassamlashgan bo'ladi. She'r nasrga qaraganda boshqacha rol tasvir etadi. Unda katta umumlashtiruvchi kuch mavjud. Bir band she'rda bir olam ma'no ifodalanishi mumkin. Chunki sh'er inson kechinmalari, kayfiyati va ichki dunyosini, tuyg'u-hissiyotlarini to'laroq va chuqurroq bayon qila oladi, kishining qalbiga juda tez kirib boradi. Shuning uchun she'r estetik ta'sir o'tkazuvchi beqiyos katta qudratga, ulkan tarbiyaviy ahamiyatga molik san'atdir.

Fikr she'rda tuyg'ular, ehtiroslar va barqaror intonatsiyalar orqali uyushib yuzaga keladi. Intonatsiya she'rdagi har bir so'zni o'ziga tobe' qilib, uning ta'sir kuchini oshiradi, mazmunni kitobxon ruhiga ta'sir ettirib, yorqinroq ro'yobga chiqaradi.

Nasriy asarni bir tildan ikkinchisiga o'girish qanchalik qiyin bo'lmasin, she'rni tarjima qilish undan ko'ra ancha mushkul, chunki she'riy asar tarjimasining o'ziga xos tomonlari mavjud. Tarjimon faqat she'r tarkibidagi so'zlarning mazmuninigina emas, shu bilan birga, uning ritmi, qofiyasi va intonatsiyasini ham qayta tiklashi lozim.³

Tarjimashunoslikda she'r tarjimachiligi haqida ikki xil fikr mavjud. Birinchi guruh tarafdorlari, she'rni tarjima qilsa bo'ladi, deb aytadilar; ikkinchi guruh tarafdorlari esa tamoman zid fikrni, ya'ni she'rni tarjima qilib bo'lmaydi, deyдилar. Bu xususda dunyo adabiyotining ko'plab durdonalarini rus xalqining ma'naviy mulkiga aylantirgan mashhur rus shoiri va tarjimoni Samuil Marshak bunday yozadi: "Men sirtdan qaraganda, bir-biriga zid, lekin mohiyatan to'g'ri

³ Salomov G', Komilov N. Tarjimon mahorati. – T.: Fan, 1979. – B. 30.

ikki fikrni o‘rtaga tashlamoqchiman. 1. She’rni tarjima qilish mumkin emas. 2. Har safar bunga istisno sifatida qaralishi lozim”.⁴

Samuil Marshakning fikrlaridan shunday xulosa chiqarish mumkin, ya’ni tarjimon har doim ham asliyatning muqobili bo‘larlik she’riy tarjima yaratishga qodir emas. Buning uchun tarjimonga tilni bilishdan tashqari ijodiy ruhiy xolat, she’riy kayfiyat, botiniy go‘zal his-tuyg‘u, o‘ta nozik did, tarjima qilinayotgan xalqning urf-odatları, udumlari, tabiati, mentaliteti, dunyoqarashi va, albatta, Olloh tomonidan berilgan iste’dod zarur.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, mashhur tarjimonning ikkinchi fikri diqqatga sazovordir. Ha, she’rni tarjima qilib bo‘lmaydi, lekin har safar bu jarayonga istisno sifatida qaralishi kerak. Ana shu “istisno”ni biz asarni boshqa tilda qaytadan yaralishi deb tushunamiz. Natijada, qayta yaratish san’ati vujudga keladi. Ilmiy muomalada u tarjima deb atalaveradi. Qayta yaratish san’ati deganda, nazm tarjimasining puxta kechgan evolyutsiyasini, ritmik aniqlik, musiqaviy-intonatsion (ohang monandligini), lisoniy tafovutlarni, vazn va qofiya muammolarini, individual uslub va milliy o‘ziga xoslikning berilishini, shakl va mazmunning yaxlitlikda, dialektik bog‘liqlikda namoyon bo‘lishini, ularning dialektik tarzda bir-biri bilan uzviy aloqasini nazarda tutiladi.

Bevosita tarjimaning muhim masalalaridan yana biri asliyat tilidagi badiiy komponentlarni tarjima qilinayotganda tilda qayta yaratishdir. Har bir xalqning urf-odati, turmush tarzi, an’analari, madaniyati-ma’naviyati, iqlim va geografik joylashuvidan kelib chiqib, uning qarashlari ham turlicha bo‘ladi. Mana shu “turlichalik” har safar tarjimon oldiga murakkab muammolarni qo‘yadi, undan masalaga ijodiy yondashishni, matnga bo‘lgan munosabatda xushyorlikni talab etadi. Masalan, tarjima qilinayotgan tildagi biron bir so‘z boshqa tilda xunukroq, noo‘rin bo‘lsa, bunday xollarda tarjimon o‘z milliy adabiyotidagi an’analarga suyanib, tarjima asarini o‘qiydigan kitobxonning qabul qilish imkoniyatini, didini, mentalitetini nazarda tutmog‘i, asliyat mazmuniga mos tushadigan so‘z

⁴ Xolbekova B. She’riy tarjima mezonlari.// Jahon adabiyoti. – T., 2009 11-son. – B. 157. [Маршак С. Поэзия перевода. – М.: Литературная газета. 31-мая 1962 г.]

orqali ifoda etmog'i shart. Ushbu asliyatga muqobil-ekvivalent tarjimalarda umumadabiy estetik jarayon kechganligining guvohi bo'lamiz. Demak, tarjimada ekvivalentlik, ya'ni tarjimaning faqat shakliy tomondagina munosib bo'lishi yetarli emas, balki asarning tagmatnidagi ma'nodorlik, maqsad ham o'z ifodasini topgan bo'lishi talab etiladi.

O'zbek tarjimashunos olimlari G'aybulla Salomov va Najmiddin Komilovlar she'riy tarjimaga yuqori baho berib, shunday ta'rif berishadi: "Badiiy tarjimaning boshqa turlariga qaraganda she'riy tarjima badiiy tarjimaning oily navi – desa bo'ladi". Atoqli olimlarimiz she'riy tarjimaga bejiz bunday yuqori baho bermaganlar. Chunki she'riy tarjima jarayonida shoir-tarjimon, ijodkor tarjima mahsulini dunyoga keltiradi. Mana shunday mashaqqatlar bilan xalq mulkiga aylanadigan tarjima asarlar san'at darajasiga ko'tariladi.⁵

She'riy asarda shakl va mazmun bir-biri bilan chambarchas bog'langan bo'ladi. Har bir she'riy asar o'z mazmuniga mos shakl – vazn, qofiyalanish sistemasi, ritmi va intonatsiyasiga ega. Shoir muayyan g'oyani ifodalash uchun unga muvofiq so'z va so'zlar silsilasi, sintaktik birikish yo'li, vazn turini tanlaydi va shu orqali o'z g'oyasini mukammalroq bayon eta oladigan shakl ijod qiladi. Har bir shakliy zarra she'rda mazmunni ro'yobga chiqaruvchi vosita hisoblanadi. She'rda mazmun bilan shakl birikuvi uyg'undir.

Gyote so'zi bilan aytganda, "Hech bir ichki narsa ham tashqi narsa ham yo'q. Zotan, barcha ichki narsalar ayni paytda tashqi narsalardir"⁶. Shunday ekan, she'rning biror muhim zarrasi o'zgarishi bilan uning butun ruhi o'zgacha tus olib ketishi mumkin. Ritm o'zgarishga uchrar ekan, so'z va so'zlar mazmuni ham binobarin, intonatsiya, uslub ham o'zgaradi. Demak, asarning butun she'riy mohiyati, mazmuni o'zgacha bo'lib qoladi. Lirik qahramon, uning ovozi, dunyoga munosabati bo'lakcha maqomga ko'chadi.

⁵ Xolbekova B. She'riy tarjima mezonlari. // Jahon adabiyoti. – T., 2009 11-son. – B. 159.

⁶ Гете. Об искусстве. – М., 1975. – С. 211.

Vaholanki, she'rni bir tildan ikkinchi tilga o'zgarishlarsiz tarjima qilish mumkin emas. Chunki har bir xalqning o'z she'riy tizimi, tarixan shakllangan nazm an'analari, she'riyatining o'ziga xos muayyan belgilari mavjud. Tarjimada bu xususiyatlarning hammasini aks ettirish imkoniyati yo'q. Ammo bu she'rni bir tildan boshqa tillarga tarjima qilishning iloji yo'q, she'riy tarjima g'ayriimkoniy, degan gap emas, albatta.

She'riy tarjima imkondan holi narsa, degan gap noto'g'riligi allaqachon isbotini topgan. Barcha xalqlardagi tarjima tarixi, hozirgi vaqtda qilinayotgan ajoyib she'riy tarjimalar adib va olimlarning umidsizlik kayfiyatlarini batamom rad etadi.

She'riy tarjimada nasrga qaraganda "qurbonlar" ko'proq bo'lishi tabiiy. Lekin bu "qurbonlar"ni deb tarjima qilishdan voz kechib bo'lmaydi. Tarjima jarayonida ro'y beradigan yo'qotishlar qay darajada, qanday sodir bo'ladi? – Hamma gap shunda. Bu esa, tarjimon tanlagan prinsip, uning asl nusxaga munosabati, shoirlik va tarjimonlik iste'dodiga bog'liq. Tarjimon o'z ijodiy quvvatiga cheksiz erk berib, asarni tamoman yangidan ijod qilishi ham uning ba'zi unsurlarini o'zgartirib, muallif so'zi va sozini, qalbi va ovozi saqlab qolishi ham mumkin.

Ba'zi hollarda she'rlar tarjima natijasida vazni va xususiyatini saqlab qoladi. She'r ravon va ta'sirchan jaranglaydi. Intonatsiya ham yaxshi berilgan bo'ladi, qofiyalanish sistemasi ham o'rniga qo'yilganligini kuzatamiz. Biroq tarjimon undagi me'yorlarning butun leksikasini o'zgartiradi. U asarning mazmunini o'z so'zlari bilan ifodalaydi.

Asl matndagi har bir so'zning ma'nosini har bir tarjimon o'zicha talqin qiladi va she'riy san'at taqozosiga ko'ra har xil vazn va qofiyada ifoda etadi. Bu she'riy tarjimaning yaxshi va yomonligi yoki uni biri to'la, biri kemptik tarjima qilganidan emas, balki har bir tarjimonning she'rdagi so'z va iboralarni o'zicha talqin qilishiga bog'liqdir.

Asar tarkibidagi u yoki bu tilini mukammal bilmaslik asl matn tarjimasida ma'nolarning to'laqonli ochilmasligiga, tarjima asarning tushunarli chiqmasligiga sababchi bo'ladi.

She'riy tarjimada asarni ko'ngildagiday chiqarish uchun asl nusxaga o'zgartirishlar kiritish joizdir. Agar bu jarayon she'rning mazmun va ruhiyatiga, intonatsiyasiga putur yetkazmasa, o'shandagina u foydali o'zgartirish bo'ladi. Ba'zi she'rlar tarjimasida esa buni aksini ham kuzatish mumkin. Masalan, unda she'rning ifodalarini o'zgartirib, intonatsiyani kuchliroq qilishga intilib, mazmunni ham o'zgartirib yuboriladi. Uning tarjimasi asl nusxadan yiroqlashib ketadi. Ba'zida asl nusxani o'rnini bosadigan ravon, puxta, har tomonlama sog'lom she'rlarni ham kuzatamiz. Unda asl nusxaga yaqinlashish uchun ba'zi "qurbonlar" qilinadi. Ortiqcha o'zgartirishlardan o'zini tiyadi, me'yorga qarab ish tutadi, muallif uslubini ijodiy qayta yaratadi. Ba'zilar esa, muallif uslubini o'z uslubiga bo'ysundiradi, natijada umuman boshqa she'r dunyoga keladi. Ba'zan tarjimonlar qiyinchilikdan oson qutulish yo'lini qidiradilar va o'z tarjimalarida o'rinli, ayrim xollarda o'rinsiz tushurib qoldirishlarga, o'zgartirishlar kiritishga jazm etadilar. Tarjimada bunga iloji boricha yo'l qo'ymaslik kerak.

Lekin shuni ham e'tiborga olish joizki, absolyut sodiqlik, asliyatga to'la mos keluvchi "haqqoniy" she'riy tarjima yaratish g'oyat mushkul ish. Muhimi, asar mazmunini, ruhini, ritmikasini o'qirmanga yetkaza olishda.⁷ Bu haqida mashhur tarjimashunos olim, professor G'aybulla Salomov shunday deydi: "Tarjima jarayonining mohiyati asl nusxada aks etgan shakl bilan mazmunning birligini, yaxlitligini saqlash uchun bo'lak tildan muqobil vositalar qidirib topishdan iborat."⁸ Bu narsa, birinchidan, tarjimonning maqsadi, tutgan yo'li, shoirlik iste'dodiga bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, she'riy asarning xususiyati, tur va janr xossalariga bog'liq. Falsafiy-hikmatona, pand-nasixat mazmunidagi yoki

⁷Alimbekov A. P.B. Shelli o'zbek tilida.// Sharq tarjimashunosligi: tarixi, hozirgi kuni va kelajagi. – T.: ToshDShI, 2013. – B. 40.

⁸Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. – T.: O'qituvchi, 1978. – B. 149.

romantik-simvolistik, ishqiy-lirik va yohud sentimental-patetik mazmundagi asarlarning barchasini birday talab andozasi bilan tarjima qilish mumkin emas. Bulardan har birining o'z tarjima uslubi, o'ziga yarasha "qurbon"lari va "xaqqoniyli" bo'ladi. Falsafiy she'rlar tarjimasida asosiy e'tibor fikrni aynan o'ziday mukammal aks ettirishga qaratilsa, romantik she'rlarning obrazlari, romantik intonatsiyasini saqlashga e'tibor beriladi, lirik she'rlar tarjimasida esa ichki xissiyotni qayta gavdalantirish birinchi o'rinda turadi.

She'rda ifoda birligi nasrga qaraganda boshqacharoq; bunda mantiqiy intonatsion tugallikdan tashqari, ritmik –intonatsion tugallikni ham hisobga olish zarur. Har bir she'riy asar kichik birlik, ya'ni baytlardan tashkil topgan bo'ladi. Tarjimon har bir baytni alohida nazarda tutib, uning vazni, qofiyasi, ichki ohangdoshliklari, so'z obrazlari, mazmun-ma'nosi hammasini bir paytning o'zida hisobga olgan holda tarjima qiladi. Shu asnoda u har bir baytning qaysi tomonini olib qolish, nimasini qurbon qilib asl nusxaga muvofiq keluvchi bayt yaratishni uzil-kesil hal qilib oladi. Shunday qilib, o'zgarishlar "qurbonlar" har bir bayt doirasida amalga oshadi. Tarjimonning asarga munosabati, "raqiblik" yoki "sodiqli" shunda namoyon bo'ladi.

Katta tajriba hosil qilgan tarjimongina bu nomuvofiqlikni bartaraf qila oladi. Buning uchun o'z milliy adabiyotining vakili o'laroq, ko'p yillik tarjimonlik iqtidoriga ega san'atkor bo'lmog'i lozim. Shundagina u bu qiyin ishning uddasidan chiqadi. Aks holda she'rning mazmunini tamoman o'zgartiradi, muallifning she'riy qolipi ichiga o'zi yangi ma'no joylashtiradi, yoinki mavhum jumlar to'qiydi, muallif misralarini san'at: she'riyat, musiqiylik va mantiqdan mahrum qilib, quruq sxemalar taqdim etadi.

Naqadar saodatki, xalqlarning o'rtasida "tarjima" degan qudratli vosita bor! U tufayli buyuk so'z ustalari o'zlari yaratgan sanat asarlari bilan faqat o'z xalqlarinigina xushnud etib qolmasdan, balki boshqa millatlarning huzuriga ham tashrif buyuradilar, zafarli safarga o'tlanadilar. Tarjima yo'li bilan milliy madaniyatlar bir-birini boyitadilar. Ijtimoiy hayotning qaysi bir jabhasiga

qaramang, u yerda katta tarjimaning hayotbaxsh ta'sirini ko'rasiz. Tilda, tafakkurda, madaniy adabiy hayotda, san'atda —hamma joyda uning o'ziga xos ta'siri sezilib turadi. Tarjimashunoslik xalqlar o'rtasidagi madaniy, ijtimoiy, do'stlik, totuvlik, yaxshi qo'shnichilik aloqalari va munosabatlarini yo'lga qo'yish, mustaxkamlash, taraqqiy ettirishga xizmat qiladi. Tarjima orqali umuminsoniy qadriyatlar keng va chuqur tomir otadi, insoniyatni yangi taraqqiyot pog'onalariga olib chiqadi.

Tarjima orqali xalqlar o'rtasida yaxshi niyat, aql-idrok, tinchlik ustuvor bo'ladi⁹. Shunday ekan, biz ana shu asnoda xitoy she'riyati va ularni o'zbek tiliga tarjima qilishning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

1.2. Xitoy tarjimashunoslarining she'riy tarjima nazariyasiga doir qarashlari

Xitoy she'rlari tarjima xususisaytlarini tahlil qilishga o'tishdan avval, xitoy tarjimashunosligidagi she'riy tarjima masalalari doirasida bildirilgan nazariy fikr, qarashlarga ham to'xtalib o'tish joiz.

Tarjima to'g'risida so'z yuritganda, tarjima prinsiplarini tilga olmasdan o'tishning iloji yo'q. Tarjima prinsipi haqida so'z borganda esa zamonaviy xitoy tarjimashunosi Yan Fu¹⁰ o'rtaga tashlagan 信达雅 xindaya – asl asarga tarjimada “sodiq bo'lish”, “ravon bo'lish”, “go'zal bo'lish” prinsipini ko'rmay o'tib bo'lmaydi. Yan Funing mazkur tarjima prinsipi deyarli bir yarim asrdan buyon xitoy tarjima faoliyatining mezoni, tarjima saviyasini baholaydigan o'lcham, shunday ekan tarjima nazariyasining markazi bo'lib kelmoqdi. 信达雅 xindaya “sodiq bo'lish”, “ravon bo'lish”, “go'zal bo'lish” prinsipi tarjima nazariyasi sahnasiga chiqqach, mazkur prinsip ustida xitoy tarjima nazariyotchilari o'rtasida uzluksiz munozaralar olib

⁹ G'ofurov I. Tarjimonlik mutaxassisligiga kirish. – T.: Mehridaryo, 2008. – B. 5.

¹⁰ Yan Fu (严复 Yan Fu) – 1854 yili 8 yanvar kuni Fujiyan shahrining Xouguang shahrida dunyoga kelgan. Uning asl ismi Zongguang bo'lib, millati xan. U Angliya qirol oilasining dengiz qurolli kuchlari Grinvich oliy-gohida tahsil olgan. Vataniga qaytgach Fudan ochiq maktabi rahbari, Poytaxt universiteti tarjima boshqarmasi boshqaruvchisi lavozimida ishlagan. U 1921 yilning 27 oktyabrida vafot etgan.

borilgan bo'lsada, bu prinsipning oldiga tushadigan ilmiy, ihcham, tushunarli bir o'lcham maydonga kelganicha yo'q. Bu borasidagi muzokara, munozaralar asosan ushbu prinsipning o'zini yoki unday, yoki bunday shaklda izohlash bilan cheklanib qoladi. Xitoy Xalq Respublikasi tashkil topgach, xitoy tarjimashunosligida mezon qilinib kelayotgan "asliga sodiq bo'lish, tarjima tili ravon bo'lishi, uslubni saqlash" prinsipi ham 信达雅 *xindaya* ning izohi yoki ikkinchi bir xildagi atalishidir.

Shunday qilib, Yan Fu tarjima to'g'riligining uch mezoni: 信 *sin*, 达 *da*, 雅 *ya* larni taklif etdi. Undan keyingi o'tgan 80 yildan ortiq davr mobaynida xitoy nazariyotchilari biron-bir yangi tamoyil taklif etmay, balki ushbu mezonlar mohiyatini turlicha ta'riflash bilan mashg'ul bo'ldilar.¹¹

Lekin Yan Funing o'rta tashlagan uch prinsipidan oldingi ikkisi, ya'ni 信 *xin* "sodiq bo'lish" bilan 达 *da* "ravon bo'lish" hozirda ham real ahamiyat, hayotiy kuchga ega. 雅 *ya* "go'zal bo'lish" esa zamon talabiga, tarjima amaliyotiga uyg'un kelmaydi. Bu o'lcham hozirgi tarjima nazariyasi tadqiqotlarida umuman rad etib tilga olinmoqda. Buning sababi, birinchidan, Yan Fu "go'zal bo'lish" deganda tarjimaning Xan sulolasidan burungi uslubda ishlanishini ko'zda tutgan. Yan Fu mazkur prinsip bilan chiqqanida qadimiy adabiy uslubda bu prinsip hali real ahamiyatga ega edi. Qadimgi xitoy adabiy uslubi allaqachon iste'moldan chiqqan bugungi kunda mazkur prinsipni asos qilib olib bo'lmaydi, albatta. Ikkinchidan "sodiq bo'lish" deganda asli asarning mazmuniga sodiq bo'lish ko'zda tutilib qolmasdan, balki asli asarning uslubiga ham sodiq bo'lish ko'zda tutilgan. Asli asarni "sodiq bo'lish" o'lchamiga asoslanib me'yoriga yetkazib tarjima qilinsa, go'zallik ham shuning ichida bo'ladi. "Go'zal bo'lish"ni ayrim bir o'lcham sifatida o'rta qo'yishning hojati yo'q, deb hisoblaydi xitoy tarjima nazariyotchilari. Uchinchidan, go'zallik mutlaq bo'lmaydi, balki u nisbiy xarakterga egadir. Asli matnlarning esa go'zallari ham bo'ladi, go'zal emaslari ham bo'ladi. Tarjimada turli janrdagi asarlar, ya'ni siyosiy, nazariy, ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy mazmunni

¹¹ Ziyamuhamedov J. Xitoy tarjimashunosligi tarixidan.// Sharq tarjimashunosligi: tarixi, hozirgi kuni va kelajagi. – T.: ToshDSH, 2013. – B. 56.

qamrab olgan asarlar o'ziga munosib til, uslub bilan tarjima qilinsa, ularning go'zal bo'lgani shundadir.

Tarjima prinsipini nazariyada tushunish bir so'z, uni amaliy tadbiq etish boshqa bir so'z. "Sodiq bo'lish" va "ravon bo'lish" prinsiplarini nazariyada tushunib olish oson, lekin amaliy tarjimada to'g'ri tushunish va to'g'ri tadbiq qilish oson emas. "Sodiq bo'lish" prinsipiga ko'proq ahamiyat qaratilsa o'zbek tili odatidan yiroqlashib ketish mumkin, "ravon bo'lish" prinsipiga ortiqroq e'tibor berilsa asl matndan yiroqlashib ketish mumkin. Bunday ikki o't orasida qoldiruvchi vaziyatga doim duch kelib turamiz. "Sodiq bo'lish", "ravon bo'lish" prinsiplarini to'g'ri tadbiq etish quyidagi bir necha aspektlarga bog'liq:

✚ "Sodiq bo'lish" va "ravon bo'lish" o'rtasidagi munosabatni ajratib, "sodiq bo'lish"ning chin ma'nosini to'g'ri tushunish kerak. "Sodiq bo'lish" degani mazmun va uslub jihatidan asli matnga o'xshash bo'lish demakdir. Ya'ni bu asl matnda ifodalangan ma'noni aniq qilib boshqa bir tilda qaytadan ifodalashdir.

✚ "Ravon bo'lish" degani tarjimaning tili tushunarli, o'zbek tilining grammatik qoidalariga va ifodalash odatiga uyg'un kelishi demakdir. Asl matn ravon va savodli ifodalangan bo'lsa bu "ravonlik"dir. Asl matn agarda atayin savodsiz yozilgan bo'lsa (masalan, madaniyatsiz kishining nutqini tasvirlash uchun), bu "ravon emaslik"dir. Bunday holatdagi "ravon emaslik" bu aynan "ravonlik"dir.

"Sodiq bo'lish" va "ravon bo'lish" bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lib, ularni bir-biridan ayirib bo'lmaydi. Tarjimaning asl matnga sodiq qolishi uchun, uni ravon, tushunarli bajarish kerak. Tarjimani ravon qilish uchun esa asl matnning g'oyaviy mazmuni va adabiy uslubini puxta egallab unga qattiq amal qilish va ana shu asnoda ravon qilish lozim. Bu yerda so'z yuritilayotgan "ravonlik" asl matnni asos qilib olgan, sodiq bo'lishni shart qilib olgan ravonlikdir. "Sodiq bo'lish" tarjimaning asl matnga shaklan o'xshash bo'lishini emas, balki mazmunan o'xshash bo'lishini talab qiladi. Mazmun – bu asarning g'oyasi, shakl – shu g'oyani ifodalaydigan so'z, jumla va ifodalash shakli. Bunday mulohazalarning tasdig'ini

o'zbek tarjimashunosi Qudrat Musaevning: "Tarjimaning vazifasi – asliyat va tarjima tillari leksik, grammatik va stilistik hodisalari o'rtasidagi uyg'un hamda tafovutli jihatlarni puxta o'zlashtirib olgan holda, asliyatning shakl va mazmun birligini ona tili vositalari yordamida qayta yaratishdan iboratdir"¹², – degan fikridan ham topamiz.

Lekin bunday asos me'yorga erishish aslo oson emas. Tarjima jarayonida ko'plab unsurlar ustida mulohaza yuritish, turli ziddiyatlarni hal qilish kerak bo'ladi. Masalan, siz bor kuchingiz bilan "sodiq bo'lish"ga intilsangiz, yana "ravon bo'lmay qolish"dan qo'rqasiz. "Ravon bo'lish"ga intilsangiz, "sodiq bo'lmaslik"ni keltirib chiqarishdan qo'rqasiz. Siz asl matn tili mamlakatining ruhiyatini yetkazib berishni istaysiz-u, "tarjima intonatsiyasi"ni yuzaga kelishidan qo'rqasiz. "Tarjima intonatsiyasi"ni chetlab o'tishni istaysiz-u, yana "chet mamlakatning ruhiyati"ni yo'qotib qo'yishdan qo'rqasiz. Siz yozuvchining ortidan izma-iz borishni istaysiz-u, o'quvchini yo'qotib qo'yishdan qo'rqasiz. Siz o'quvchi haqida o'ylaysizu, yozuvchiga xiyonat qilishdan qo'rqasiz... Bundan ko'rinib turibdiki, tarjima bu kishidan keng dunyoqarash, bilim va katta salohiyat talab qiluvchi murakkab faoliyatdir¹³.

Xu Shi¹⁴ ham Yan Fu ning 信, 达, 雅 *sin, da, ya* kabi uch tamoyiliga rioya qilgan. U tarjimon o'zi, kitobxon va asl nusxa muallifi oldida mas'uliyatni zimmasiga olishi kerak deb hisoblagan. Tarjimaga nisbatan asosiy talablarni u quyidagicha bayon etgan: "Yan Fu yaxshi tarjima 信, 达, 雅 *sin, da, ya* ga muvofiq kelishi lozim deb aytganida, u qadimgi uslubni (古雅 *guya*) nazarda tutgan. Bugunda esa, agar biz qadimgi uslubga intilmayotgan bo'lsak, tarjima uslubi yaxshi bo'lishi talab etiladi (好 *xao*)"¹⁵.

¹² Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. –T.: Fan, 2005. – B. 10.

¹³ Ismatullayeva N. Yan funing 信达雅 *xindaya* tarjima prinsipi va uning xitoy tarjimashunosligidagi o'rni xususida.// Sharq tarjimashunosligi: tarixi, hozirgi kuni va kelajagi. – T.: ToshDShI, 2013. – B. 126-128.

¹⁴胡适 (1891.12.17–1962.2.24) Xu Shi nafaqat xitoyda balki dunyoda mashhur bo'lgan XX asrning faylasufi, tilshunosi va mutafakkiri. Shanxayda tug'ilgan. Kolumbiya universitetida tahsil olgan. Adabiyot bo'yicha Xalqaro Nobel mukofoti sohibi.

¹⁵ Ziyamuhamedov J. Xitoy tarjimashunosligi tarixidan.// Sharq tarjimashunosligi: tarixi, hozirgi kuni va kelajagi. – T.: ToshDShI, 2013. – B. 59.

Yana bir xitoy tarjimashinos olimi, alqissa, she'riyat tarjima nazariyasi bilan shug'ullanuvchi Syuy Yuanchongning ijodiy faoliyati va qarashlarini e'tirof etish mumkin.

Barchaga ma'lumki, xitoy tilidagi she'rlarni tarjima qilish eng murakkab tarjima qilinadigan badiiy janrdan biridir. Roman, drama, nasriy tarjimadan farqli she'riy tarjima nafaqat muallifning muloqot niyatini ifodalab berishi kerak, balki yana tarjima tiliining usuliga muvofiq qofiyalanishi, qofiyalardan nusxa olish qonuniyatiga amal qilgan holda asl tildagi she'rning jozibasini ifodalab berish kerak bo'ladi. Bu she'riy tarjima murakkabligini yanada ortishiga olib keladi. Shu tufayli xitoy tilidagi she'rlarning boshqa tillarga tarjimasida nazariy yo'llanma zarur bo'ladi. Hozirda Xitoyda yo'naltiruvchi she'riy tarjima nazariyalari juda ozchilikni tashkil qiladi. Aksariyat tarjimonlar she'riy tarjima amaliyotida asosan o'tmishdan yig'gan tajribalariga tayanadilar. Bunday hodisa bir tomondan Xitoydagi she'riy tarjima taraqqiyotiga ta'siri yomon bo'lib, ikkinchi bir tomondan Xitoy madaniy xazinasining dunyo ahli oldida ochilishi uchun juda qiyindir.

Xitoyda professor Syuy Yuanchong she'riy tarjimada ilg'orlardan bo'lib, uning asarlari 50 dan ziyodni tashkil qiladi. Uning ko'plab ishlari orasida "Oqib ketayotgan yillarni xotirlab" ("追忆逝水年华"*Zhuiyi shishui nianhua*) va uchta tarjima nazariyasi tadqiqotlariga bag'ishlangan ishlardan tashqari boshqa ishlari tarjima asarlaridir. U nafaqat ko'p sonli mashhur g'arb romanlarini xitoy tiliga tarjima qilgan, balki yana "Chu knyazligi ash'orlari" ("楚辞"*Chu ci*)¹⁶, "Yuan davri dramalari" ("元曲"*Yuanqu*) kabi badiiy janrdagi asarlarni tarjima qilgan. Shuningdek, xitoy tilidan ingliz tiliga amalga oshirgan "Xitoyning mumtoz 600 she'ri" ("中国古诗词六百首"*Zhongguo gu shici liu*

¹⁶楚辞 *Chuci* ya'ni Chu satrlari Xitoyning janubiy xududida joylashgan va ilk o'rta asrlarda Xitoy davlatchiligi markazi bo'lmish, eramizdan avvalgi (XI-III) Chu shohligi davriga xos bo'lib, yana bir yozma yodgorliklardan biri hisoblanadi. Mazkur yozma yodgorlik ilk bora Xan davrida paydo bo'lgan. To'plamning birinchi variantini Lyu Syan (eramizdan avvalgi 77-yillar) tomonidan tuzilgan. Ikkinchi variantini esa kechki Xan davri filolog olimi Van I (89-158 yillar) yaratgan. Mazkur to'plamga bir nechta she'riy asarlar kirgan. [Ziyamuhamedov J. Xitoy tarjimashunosligi tarixidan.// Sharq tarjimashunosligi: tarixi, hozirgi kuni va kelajagi. – T.: ToshDSH, 2013. – B. 52.]

bai shou), “She’rlar to‘plami” (“诗经”*Shijing*), “Xitoyning 300 boqiy she’ri” (“中国不朽诗三百首” *Zhongguo buxiu shi san bai shou*) to‘plamlarini chop ettirgan.

Syuy Yuanchongning tarjima asarlari sifati va miqdoridan kelib chiqib, unga “Xitoy tarjima o‘rmonining eng buyugi” nomi berilgan. Eng muhimi Syuy Yuanchongning jonbozlik ko‘rsatgan badiiy tarjima nazariyasining Xitoy qadimiy uslub vaznidagi she’rlarning tarjimasiga ma’ruzaviy yo‘naltiruvchi vazifani bajargan. Shuningdek, u tarjima amaliyotida o‘zining tarjima nazariyasini nazorat qilib mukammallashtirib borgan.

Syuy Yuanchong ko‘plab badiiy asarlarni tarjima qilish bilan bir qatorda, u o‘zini tarjima nazariyasi tadqiqotiga bag‘ishlagan. Olim ilm-fanning taqiq qiladigani bu ob’yektiv haqiqat bo‘lib, inson irodasi bilan o‘zgartirib bo‘lmaydi deb hisoblaydi. Lekin san’at tadqiqotining ob’yektiv qonuniyatlari sub’yektiv iroda ta’siriga uchraydi. Qonuniyatga muvofiq keluvchisi yaxshi bo‘lishi aniq emas. Aksincha qonuniyatga mos kelmagani yaxshi bo‘lmasligi aniq emas. Shu tufayli u matematik formula $1+1=2$ bilan ilm-fanni ifodalaydi. Ya’ni mohiyat shaklga tengdir. San’atning matematik formulasi esa $1+1=3$, ya’ni mohiyat shakldan kattaroqdir.

Badiiy tarjima nazariyasi borasida ilgarigi tarjimashunoslarning tajribalarini umumlashtirgan holda va shuningdek, o‘zining tarjimonlik amaliyotini bog‘lab, ana shu asosda Syuy Yuanchong Xitoy ilmiy maktablarining “Go‘zallashtirilgan san’at, huddi bellashgan singari eng ajoyibotlarni yaratish” tarjima nazariyasini jamlaydi.

美化之艺术 *meihua zhi yishu* “Go‘zallashtirilgan san’at”

Unga ko‘ra 美 *mei* “fikrning go‘zalligi”, “tovushning go‘zalligi”, “shaklning go‘zalligi”ni ko‘rsatadi.

化 *hua* “tenglashtirmoq”, “sayozlashtirmoq”, “chuqurlashtirmoq” ma’nosini anglatadi.

艺术 *yishu* “qoidalarni buzmay yurak amriga bo‘ysunib ish ko‘rish”ni ifodalaydi.

意似 *yi si* – “fikr singari” she’riy tarjimaning quyi mezon.

意美 *yi mei* – “fikrning go‘zalligi” she’riy tarjimaning yuqori mezon.

三美 *san mei* – “uch go‘zallik”gina eng oliy mezondir.

Professor Syuy Yuanchongning fikricha, 意美 *yi mei* “fikr go‘zalligi” tarjimada eng muhim, 音美 *yin mei* “ritm go‘zalligi” ikkinchi o‘rin, 形美 *xing mei* “shakl go‘zalligi” uchinchi o‘rindagi unsur hisoblanadi.

Syuy Yuanchong ta’rif bergan “uch go‘zalligi”da uning tarjima nazariyasi estetik tarjima doirasiga mansubligini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, badiiy asarlarining o‘zi go‘zallikning namoyonidir. Go‘zal badiiy janrni yetkazuvchi yoki aytish mumkinki u go‘zallikni yetkazib beruvchi vositadir.

Syuy Yuanchong badiiy tarjima ikki xil til, hatto ikki xil madaniyat o‘rtasidagi qaysi yozuv asliyatning mazmunini yaxshiroq ifodalab bera olishi bo‘yicha musobaqa degan fikrni o‘rtaga tashlaydi. Tarjimon o‘quvchining badiiy asar jozibasini anglashi uchun tarjimon tilning ifoda usullaridan foydalanib imkon qadar tilning afzalligini namoyon qilishi zarur. Xitoy tili va o‘zga tillar turli xususiyatlarga ega bo‘lganligi tufayli tarjimon tarjima tilining afzalligini namoyon qilishda fikrning go‘zalligi, shaklning go‘zalligi va tovush go‘zalligi natijasiga yetishishi lozim. Syuy Yuanchong “musobaqa nazariyasi”ga ko‘ra ingliz tili aniqlilik ustunligiga ega, lekin xitoy tilidagi she’rlar esa ixchamlilik ustunligiga ega deb hisoblaydi¹⁷.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, tarjima faoliyatida juda ko‘p antinomiya mavjud bo‘lib, shu tufayli mazkur faoliyat juda individuldir. Bu singari individuallik ham mug‘ayyan bir qoidalariga tayanib va shuning bilan

¹⁷ <http://wenku.baidu.com>

o'ziga xosligini ham yo'qotmay olib borilsa, juda saviyali tarjima mahsullari dunyo yuzini ko'radi. Asl asar, matn mazmuni va muallifning uslubiga sodiq qolish, tarjimani grammatik, stilistik, leksik jihatdan ravon va savodli amalga oshirish, kerakli o'rinlarda (ayniqsa she'riyatda) tarjimani badiiy jihatdan go'zal yaratish tarjimonning yetakchi maqsadlaridan bo'lishi lozim. Fikrimizcha, eng avvalo, asliyat asarining muallifi uslubiga hech qachon xiyonat qilib bo'lmaydi. Aks holda ana shu muallifning dunyoqarashi, fikrlash saviyasi, muallif millatining o'ziga xos madaniy xususiyatlarini o'quvchiga ko'rsatib berolmaslik mumkin.

II BOB. XITOIY SHE'RIYATINI TARJIMA QILISHNING O'ZIGA XOSLIKLARI (davrlarga ko'ra)

2.1. Qadimgi xitoy she'riyati va tarjima. "Shijing" she'rlar to'plami

诗经 *shijing* "Shijing" Xitoyning eng ko'hna she'riy to'plami bo'lib, uning san'at va mafkuraviy jihatdan yuqori darajali yutuqlari Xitoy va hatto jahon adabiyoti tarixida o'chmas nur taratadi.

"Shijing" dastlab faqat "Shi" (诗 she'r) deb atalgan. Saralanma she'rlar 311 tani (6 tasi yetib kelmagan) tashkil etganligi sababli "Shi san bay" (诗三百 300 she'r) ham deb nomlanadi. Konfutsiy "Shi san bay"ni o'zining ma'naviy-axloqiy ta'limoti darsligi sifatida qo'llagan. Keyingi konfutsiychilik maktabi uni o'z muqaddas kitobi etib qabul qilgan. Shunda ushbu "Shijing" nomi yuzaga keladi.

"Shijing"dagi eng dastlabki she'r taxminan G'arbiy Jou qirolligi¹⁸ davri boshlarida yozilgan. Eng kech asari Chunchyu davri¹⁹ o'rtalarida yaratilgan bo'lib, oradagi vaqt deyarli 6 asrni tashkil etadi. G'arbiy Jou qirolligi davrida xitoy musiqasi va she'riyati ancha yuksak darajalarga erishgan. Jou qirolligi va knyazliklardagi musiqa ustozlari barcha o'lka va barcha qatlam she'rlarini turli yo'llar bilan tinmay jamlaganlar hamda ularni tartibga solib ijro etish uchun foydalanishga havola qilganlar. Chunchyu davri boshlangach jamiyatda g'alayonlar ko'tarilib, harbiy halokatlar takrorlanib tursada bu harakat to'xtab qolmagan. "Shijing" aynan shunday uzoq muddatli jamlamalardan so'ng qayta Konfutsiy tomonidan taxrir etib chop etilgan. Konfutsiy ta'limotida aynan shu manbaning katta qimmatga egaligi va darslik sifatida qo'llanganligini "Lun yu" asarida keltirilgan quyidagi bandlarda ham yaqqol ko'rishimiz mumkin.

¹⁸ G'arbiy Jou qirolligi Xitoyda miloddan avval 1046-771 yillari hukmronlik qilgan.

¹⁹ Chunchyu davri miloddan avval 770-476 yillarni o'z ichiga oladi.

子曰：“小子，何莫学夫诗？诗可以兴，可以观，可以群，可以怨。迩之事父，远之事君。多识于鸟兽草木之名。”

Zi yue: “Xiaozi, he mo xue fu shi? Shi keyi xing, keyi guan, keyi qun, keyi yuan. Er zhi shi fu, yuan zhi shi jun. duo shi yu niaoshou caomu zhi ming”.

Ustoz dedi: “Bolalar, nima uchun “Shijing”ni o‘rganmaysizlar? “Shijing”ni o‘qib-o‘rganish jarayonida rag‘bat va ilhom olish, ijtimoiy hodisalarni kuzatish, birdamlik tuyg‘usini o‘stirish, yomon siyosat ustidan to‘g‘ri kinoya qilish usulini o‘rganish mumkin. Yaqinidagi ota-onaga xizmat qilishda va uzoqdagi hukmdorga xizmat qilishda “Shijing”dagi qoidayu tamoyillardan foydalanish mumkin. Shuningdek, ko‘plab hayvon, qush, o‘simlik va daraxtlarning nomlarini bilib olish mumkin”²⁰.

子曰：“诗三百篇，一言以蔽之，曰：‘思无邪。’”

Zi yue: “Shi san bai bian, yi yan yi bi zhi, yue: “Si wu ya.””

Ustoz dedi: ““Shijing”da jamlangan uch yuzta she’rni bir jumla bilan ifodalasak, “Ularda hech qanday zararli fikrlar yo‘q”.²¹

Quyida Konfutsiyning “Lunyu” asarida keltirilgan “Shijing” to‘plamiga kiruvchi 8 iyeroglifdan iborat she’rni tarjimon tomonidan 4 misra shaklida mahorat bilan tarjima qilinganligini ko‘rishimiz mumkin.

子夏问曰：“‘巧笑倩兮，美目盼兮。’何谓也？”子曰：“绘事后素。”曰：“礼后乎？”子曰：“起予者商也，始可以言诗已矣。”

Zixia wenyue: “‘Qiaoxiao qian xi, mei mu pan xi.’ He wei ye?” Zi yue: “Hui shi hou su”. Yue: “Li hou hu?” Zi yue “Qiyu zhe shang ye, shi keyi yan shi yiyi”.

Zisya Ustozdan so‘radi:

“Maftunkor tabassum go‘zal naqadar,

²⁰ Konfutsiy. Lun yu. Xitoy tilidan N.Ismatullayeva tarjimasi, D.Po‘latova muqaddimasi. – T., 2013. – B. 118-119

²¹ Konfutsiy. Lun yu. Xitoy tilidan N.Ismatullayeva tarjimasi, D.Po‘latova muqaddimasi. – T., 2013. – B. 21.

Shahlo shu ko‘zlar chaqnoq naqadar.

Husnga husn qo‘shilar, magar,

Tabiiy yuzga sal berilsa rang gar”.

Mazkur she’riy misraning ma’nosi nimada?” Ustoz javob berdi: “Bu avval oddiy fon, so‘ngra esa unga tushiriladigan tasvirdir”. Zisya dedi: “Unday bo‘lsa, axloq qoidalari insonparvarlikdan so‘ng yuzaga kelar ekanda?” Ustoz dedi: “Shang, Sen menda tasavvur uyg‘ota oladigan yagona insonsan. Endi sen bilan birga “Shijing”ni tahlil qilsak bo‘ladi”²².

“Shijing” qo‘shiqlarning turliligiga ko‘ra asarlarni 3 katta tur “Feng” (“风” Urf-odatlar), “Ya” (“雅” Qasidalar), “Song” (“颂” Madhiyalar)ga bo‘ladi. “Feng” yana o‘z o‘rnida “Guofeng” (“国风” Shohliklar urflari) deb ham ataladi. Bu o‘zida hududiy bo‘yoqni aks etuvchi qo‘shiqlar bo‘lib, aksariyat qismi xalq qo‘shiqlaridir. “Guofeng” 160 ta qo‘shiqdan iborat bo‘lib, Jounan, Jaonan, Bey, Yong, Vey, Vang, Jen, Xuy, Ji, Vey, Tang, Chin, Mo, Chen, Sao kabi 15 ta o‘lka va shohliklarning qo‘shiqlarini o‘z ichiga oladi. Masalan, “Jenfeng” Jen shohligi taronalari, “Chinfeng” Chin shohligining taronalari bildiradi.

“Ya” (Qasidalar) Jou qirolligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri hukmronlik qilgan o‘lkalar musiqalarini anglatadi. “雅” ya ieroglifining “asosiy, sof” degan ma’nolari ham bo‘lib, bunday musiqalar “sof tovushlar” deb hisoblanadi, bu esa o‘z o‘rnida boshqa o‘lkalarning musiqalari bilan farqliligidan dalolat beradi. Qasidalar yana katta qasidalar va kichik qasidalarga ham bo‘linadi, jami 105 tani tashkil etadi. Qasidalarining katta qismi qirol saroyi amaldorlari va yuqori mansabdagi kishilar maslahatchilarining asarlari bo‘lib, oz qismi xalq qo‘shiqlaridir. “Song” (Madhiyalar) zodagonlarning o‘z uy ibodatxonalarida avliyo, ruhlarga qurbonlik keltirishda, ajdodlar hamda hukmdorning ezgu ishlarini madh etishda kuylanuvchi qo‘shiqlar hisoblanadi. Madhiyalar yana

²² Konfutsiy. Lun yu. Xitoy tilidan N.Ismatullayeva tarjimasi, D.Po‘latova muqaddimasi. – T., 2013. – B. 28.

“Jou madhiyalari”, “Lu madhiyalari” va “Shang madhiyalari”ga bo‘linib, jami 40 tani tashkil etadi.

“Shijing”ning barcha qimmatini asosan uning “Guofeng” qismidadir. Mazkur asarlarning aksariyati o‘sha payt xalq og‘zaki ijodi bo‘lib, bu o‘sha zamon jamiyati qiyofasini haqqoniy tasvirlagan. Xalqning turli zo‘rlilik va ekspluatatsiyalarga qarshi chiqib, erkin, baxtli va barkamol hayot kechirish orzusiga intilishlarini o‘zida aks ettirgan.

Xitoy mumtoz poeziyasining tili o‘ta lakonik, nozik, aniq va ma’nodordir. Xitoy she’riyatida ko‘p so‘zlik qusur deb bilingan. She’r yozishning asosiy mezoni so‘zlar kam bo‘lib, ma’no chuqur bo‘lsa²³.

“Shijing” asosan to‘rt so‘zlikdan iborat she’rlar bo‘lib, bu she’riyat taraqqiyoti jarayonidagi ilk shakldir. Uning ifoda usullarini o‘tmishdagilar qofiyalash, she’riy allegoriya (kinoya, majoz), tasviriy boshlama deb umumlashtirganlar. Bulardan she’riy allegoriya va tasviriy boshlama xitoy xalq she’riyatining eng ajralib turuvchi badiiy xususiyatlaridan bo‘lib, kelajak zamon she’riyati ijodiga chuqur ta’sir ko‘rsatgan.

Xuddi ana shunday she’rlar sirasiga “Katta sichqon” deb nomlanuvchi she’r ham kiradi. Bu she’rda ilk bora xitoy adabiyotida kesatq, qochirimlar qo‘llaniladi. Boy zodagon amaldorlar katta sichqonga o‘xshatib bayon qilinadi.

硕鼠

Shuo shu

硕鼠硕鼠，

Shuo shu shuo shu,

无食我黍！

Wu shi wo shu!

三岁贯汝，

San sui guan ru,

莫我肯顾。

Mo wo ken gu.

逝将去汝，

Shi jiang qu ru,

²³ Karimov A. Qadimgi xitoy she’riyati namunalarini tarjima qilish xususiyatlari. // Sharq tarjimashunosligi: tarixi, hozirgi kuni va kelajagi. – T.: ToshDShI, 2013. – B. 50.

适彼乐土。 *Shi bi Yuetu.*

乐土乐土， *Yuetu Yuetu,*

爰得我所！²⁴ *Yuan de wo suo!*

Yuqoridagi qadimgi xitoy tilida yozilgan she'ning hozirgi zamonaviy xitoy tilidagi tarjimasini keltirsak:

大老鼠

Da laoshu

大老鼠啊大老鼠， *Da laoshu a da laoshu,*

别再吃我的黄黍！ *Bie zai chi wo de huang shu!*

多年把你喂足， *Duo nian ba ni weizu,*

我的死活你一点儿也不顾。 *Wo de sihuo ni yidianr ye bu gu.*

我要离开你另找出路， *Wo yao liakai ni ling zhao chulu,*

搬到那边的乐土。 *Bandao niabian de Yuetu.*

乐土啊乐土， *Yuetu a Yuetu,*

那才是我安身生活的地方。²⁵ *Na cai shi wo anshen shenghuo de difang.*

Katta sichqon

Katta sichqon, katta sichqon,

Bo'ldi yetar tarig'imni yemagin endi.

Necha yillardan buyon to'ydiridim seni,

Sening esa yo'q ishing o'lik-tirigim.

Men seni tark etgum, boshqa yo'q choram,

Ana u tomondagi Jannat makonga,

Ex, Jannat, Jannat orzuim,

²⁴ 李立成。诗经直解。- 杭州：浙江文艺出版社，1997。第 69 页。

²⁵ 韩鉴堂。中国文化。- 北京：北京语言大学出版社，2003。第 71 页。

O'sha yergina mening rohat-farog'im.

Albatta, xitoy tilidagi ayniqsa, qadimgi xitoy tilidagi she'rlarni tarjima qilish juda mushkul. Lekin qo'limizda mavjud zamonaviy xitoy tilidagi tarjima she'rni tushunishda bir oz yengillikni beradi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, "Shijing" sodda tilda yozilganligi tufayli, tarjima tilida ham ana shu xalqchil tilda ifodalashga va qofiyalarni ham bir tekisda saqlab qolishga harakat qildik. Bu harakat ayrim so'zlarni qo'shish yoki ayrim so'zlarni qurbon qilish natijasida amalga oshirildi. Shuni aytib o'tishimiz kerakki, bunda ma'noga hech qanday putur yetmadi. Masalan, xitoy tilidagi 乐土 *Yuetu* so'zi "Jannat, jannatmakon" ma'nolarini anglatadi. Albatta, o'sha paytda, ayniqsa quldorchilik davrida kishilar "Jannat"ni, "yaxshi hayot"ni orzu qilib yashaganlar. Shu munosabat bilan, o'zbek tilida ham qofiyaning silliqqligini berish uchun "Jannat" so'ziga "orzuim" so'zini qo'shishni joiz bildik.

"Shijing" to'plamiga kiruvchi yana bir she'r va uning tarjima xususiyatlarini talqilasak.

君子于役

Junzi yu yi

君子于役，不知其期。

Junzi yu yi, bu zhi qi qi.

曷至哉？鸡栖于埘。

He zhi zai? Ji qi yu shi.

日之夕矣，羊牛下来。

Ri zhi xi yi, yang niu xialai.

君子于役，如之何勿思！²⁶

Junzi yi yi, ru zhi he hu si!

Qadimgi xitoy tilida yozilgan mumtoz she'rning mohiyati nimadaligi, uni to'g'ri tarjima qilish uchun undagi so'zlarning leksik-semantik ma'nosidan kelib chiqqan holda qay bir ma'no tanlab olinishi she'r tarjimasi istiqbolini belgilaydi. Quyida ana shu jihatga e'tibor bergan holda tarjimaga ko'mak beruvchi ma'nolar tahlilini amalga oshirsak.

²⁶ 李长之。诗经试译。- 上海：上海古典文学出版社，1956。第 47 页。

① “辞海”*Cihai* (“So‘zlar dengizi”) lug‘atida keltirilishicha “君子» *junzi* so‘zi: 1) G‘arbiy Jou, Chunchyu davrida yirik zodagon, amaldorlarga nisbatan qo‘llangan nomlash; 2) Chunchyu davri oxirlarida yuqori axloq egalariga nisbatan qo‘llangan nomlash. Konfutsiy ta’limotiga ko‘ra komil inson, olijanob inson; 3) Jentlmen, jentlmencha; 4) Qadimda rafiqaning o‘z eriga nisbatan qo‘llagan hurmat ma’nosidagi nomlashi; 5) O‘g‘ilning olamdan o‘tgan otaga nisbatan hurmat ma’nosida qo‘llaydigan nomlashi²⁷ singari ma’nolarni anglatadi.

Mazkur she’rning zamonaviy xitoy tilidagi tarjimalaridan kelib chiqqan holda so‘zning 4-ma’nosi, “er” so‘zini qo‘llash maqsadga muvofiq.

②役 *yì* – juda og‘ir mehnat, og‘ir sharoit;

③曷 *hé* "何"so‘zi bilan birday bo‘lib “qachon”, “qay payt” ma’nolarini anglatadi;

④至 *zhì* – uyga qaytmo;.

⑤埘 *shí* – tovuqxona;

⑥如之何勿思 *ru zhi he wu si* – qanday qilib o‘ylamaslik mumkin.

Mazkur she’rni avvalambor qofiyasiz, erkin tarzda bajarishga harakat qilamiz.

Rafig‘im ko‘chada og‘ir mehnatda

Rafig‘im ko‘chada og‘ir mehnatda,

Bilmam xizmat muddati yana qanchalar uzoq.

Qay paytda uyga qaytar?

Tovuqlar o‘z katagiga kirib bo‘ldi,

Tun og‘di, qo‘y va sigirlar podadan qaytdi.

Rafig‘im esa hanuz xizmatda, qanday o‘ylamak bo‘lmas.

²⁷ 《辞海》 (“So‘zlar dengizi” lug‘ati). – 上海: 上海辞书出版社, 1999 年. 第 2681 页.

Zamonaviy xitoy tilidagi matni esa quyidagicha:

丈夫服役远在异乡, *Zhangfu fuyi yuanzai yixiang,*
归期漫漫真是久长。 *Gui qi manman zhen shi jiuchang.*
哪年哪月才能归来, *Na nian na yue cai neng guilai,*
家鸡进窝真是匆忙。 *Jiaji jin wo zhen shi congman.*
眺望夕阳不断西沉, *Tiaowang xiyang buduan xichen,*
牛羊纷纷走下山岗。 *Niuyang fenfen zouxia shangang.*
丈夫服役远在异乡, *Zhangfu fuyi yuanzai yixiang,*
教我如何停止思量! ²⁸ *Jiao wo ruhe tingzhi siliang!*

E'tibor bersanggiz mazkur she'r zamonaviy xitoy tilida har biri 8 iyeroglifdan iborat 8 satrlilik she'r tarzida tarjima qilinib, ma'no kengayishini kuzatishimiz mumkin. Yana shuni ko'rsatib o'tishimiz joizki, she'r tarjimasidagi yetti nafar misra "-ang" yunmusi bilan tugallangan. Bu bilan asl she'riy matnda unchalik chiroyli bajarilmagan qofiyalanishni, tarjima she'rida ajoyib tarzda amalga oshirilganligining guvohi bo'lamiz.

Bunday zamonaviy xitoy tilidagi tarjimini o'zbek tiliga tarjima qiladigan bo'lsak hajm jihatdan undanda uzun shakldagi she'r vujudga keladi.

Rafig'im olis musofir yurtlarda xizmat qiladur
Bilmam, qaysi yil qaysi oyda qayta oladur
Shosha-pisha tovuqlar o'z iniga kirib ketdilar
Kuzatgum quyoshning shafaqda botib boradur
Qo'yu-sigir birin-ketin tepalikdan tushib keladur
Rafig'im bo'lsa olis yurtlarda xizmat qiladur,

²⁸ "http://www.gushiwen.org/GuShiWen_31372aa1fc.aspx"

Qanday qilib o‘zimni o‘ylardan to‘xtatay, ayting!

2.2. O‘rta asrlar xitoy adabiyoti va she‘riy tarjima. Tan davri she‘riyati

Xitoy adabiyoti tarixida huddi Xitoy tarixi singari, dunyoning boshqa mamalakatida bo‘lmagan an‘analar juda muhim sanalgan. Xitoy adabiyoti juda boy va mushkul, shu bilan birga uni o‘rganishda har qanday harakat ilgari suriladi. Shoirning ahamiyati so‘nggi avlodda qanday ta’sirda bo‘lganligi bilan belgilanadi. Shuning uchun tanqidchilar Tan sulolasi she‘riyatini o‘z-o‘zidan gullar bilan qoplangan va mevali daraxtga o‘xshatishgan. Uning ildizi – arxaik she‘riyat (“Shijing”), gavdasi – Xan davri (er.avv II asr), baquvvat poyasi – III asrlar, bargli shoxlari – IV-VII asrlardagi xitoy she‘riyatiga o‘xshatilgan. Tan sulolasi shoirlarining o‘zlari Tao Yuanming ijodini she‘riyatning yetib bo‘lmas cho‘qqisi deya tan olishgan. Aynan shuning uchun ham ular o‘z she‘rlarida Tao Yuanming bilan boshqa-boshqa davrlarda yashaganliklaridan achinishlarini ifoda etishgan. Ching davrida imperator Kang Si tomonidan tuzilgan, 2300ta shoir tomonidan yozilgan va o‘zida 48900 asarni jamlagan 900 tomli “Tan she‘riyati saylanma”lari e’tiborga loyiq, albatta. Uning muqaddimasida Kang Si quyidagilarni bitgan: “Tan sulolasi davri boshlanishi bilan she‘rlar ko‘rinishi va usuli har tomonlama mukammallashdi, she‘rning barcha usullari aniq va ravshan namoyon qilingan. Shuning uchun ham she‘rlarni muhokama qiluvchilarning barchasi, shuningdek, huddi mergan o‘z o‘ljasini qanday nishonga olgani kabi o‘zlarining narsalariga mezon sifatida Tan she‘riyatini olishgan”.

Tan davrida yaratilgan she‘rlarning shakli va uslubi juda rang-barangdir. Tan davrida nafaqat ilgari davrlarda yozilgan jumla qurilishi erkin uslubda, balki yana jumla qurilishi ma’lum bir mustahkam tartibdagi yangi shakliy she‘rlar ham yaratilgan bo‘lib, bular 律诗 *lvshi* va 绝句 *jueshi* she‘r shakllaridir. Bunday yangi shakldagi she‘rlarning qofiya va ritmga bo‘lgan talabi juda kuchli bo‘lib,

Xitoyning qadimgi she'riyatidagi bo'g'inlar uyg'unligi, yozuv ixchamligi san'ati xususiyatlarini yangi bir yuqori pog'onaga olib chiqadi²⁹.

律诗 *lvshi* haqida so'zlaydigan bo'lsak, bunday she'r beshta yoki yettita iyerogliflik sakkiz misradan iborat bo'ladi. Har bir misra 5 ta iyerogliflik she'r “五言律诗” *wu yan lvshi* deb nomlanadi. Misrasi 7 ta iyeroglifdan iborat she'r esa “七言律诗” *qi yan lvshi* deb ataladi³⁰.

绝句 *jueju* she'riy janri esa 4 misradan iborat bo'lib, har bir misrasi 5 ta iyerogliflik she'r “五言绝句” *wu yan jueju* deb nomlanadi. Har misrasi 7 ta iyeroglifdan iborat she'r esa “七言绝句” *qi yan jueju* deb ataladi.³¹ Hatto satrdagi iyerogliflarni kelish tartibi ham qat'iy ravishda ularning ohangi bilan belgilangan edi. Natijada xitoycha she'rlarda so'zlarni ohangiga katta e'tibor beriladi. O'zbek tilida ohang bo'lmaganligi sababli xitoycha metrik o'lchovlari tilimizga mos tushmaydi va tarjimada ifodalash mumkin emas³².

Feodalizmning taraqqiyoti va o'rta asr madaniyatining barcha jabhalaridagi rivojlanish VII-XIII asrlarda, Tan (618-907) va Sun (960-1279) sulolalari hukmronligi davriga to'g'ri keladi. Aynan shu asrlarda san'atning she'riyat va tasvir yo'nalishlari yuksak cho'qqilarga chiqqan. Tan va Sun davrlari porloq san'at bosqichlariga boy bo'lib, san'atning ko'p shaklli uslub, yo'nalish va janrlari namoyon bo'ldi. Tan davrining (618-906) boshlanishiga ikki asosiy she'riyat yo'nalishi: har juft satrda keskin nutq ohangining o'zgarishi bilan ijro etiladigan to'rt yoki sakkiz satrga ega bo'lgan “yangi usul” she'rlari va bir marom ohangda va o'lchami ixtiyoriy bo'lgan “eski usul” she'rlariga bo'lingan. O'sha davr she'riyatining buyuk vakili shoir va rassom Vang Vey (699-759) bo'lgan. “Yo'l ustida o'sib turgan o'tni oyog'i bilan bosish”ga jur'at etmagan taqvodor buddist dabdabali 賦 “fu” yo'nalishidagi Xan davri she'riyatini Tan

²⁹韩鉴堂。中国文化。—北京：北京语言大学出版社，2003。第180页。

³⁰现代汉语词典。—北京：商务印书馆，2005年。第892页。

³¹现代汉语词典。—北京：商务印书馆，2005年。第747页。

³² Karimov A. Qadimgi xitoy she'riyati namunalarini tarjima qilish xususiyatlari. // Sharq tarjimashunosligi: tarixi, hozirgi kuni va kelajagi. — T.: ToshDShI, 2013. — B. 49.

davrining dilkash, tabiatni madh etadigan she'riyatga o'tish yo'lida ahamiyati katta. Tan davrining buyuk shoirlari Li Bo (701-762) va Du Fu (712-770) lar bo'lgan. Bo Szyuyi (772-846) lirik she'rlar bilan birgalikda epik dostonlar va hajviy asarlar yozgan, zakovatli tafakkur va hajv uning ijodida katta ahamiyat kasb etadi. Li Shansiniyaning (813-858) sulolaning inqirozi davrida yaratilgan dostonlari qo'msanish va sirli ma'noga ega bo'lgan timsolni o'z ichiga oladi.

Bir narsaga e'tibor berish kerakki, xitoy mumtoz poeziyasi bu asosan o'rta asr poeziyasidir va u ma'lum tarixiy ramkalar bilan chegaralanadi. Albatta, bu holat she'riyatda ham o'z aksini topgan. Qadimda xitoy shoirlari she'riy ijod bilan professional tarzida shug'ullanmaganlar, shu sababli ularni jamiyatdagi va xizmatdagi o'rni, siyosiy, falsafiy va diniy qarashlari ularni ijodiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Ularning ko'pchiligi o'rta zodagon va amaldorlar oilasidan chiqqan bo'lib, an'anaviy konfusiychilik ta'limotida tarbiya topib, daosizm yoki buddizm ta'siriga tushgan shaxslar bo'lgan³³.

Tan davrining yakunida 詩 “shi” yo'nalishi o'z yangiligini yo'qotadi va yangi yo'nalish 詞 “si” o'z ravnaqini topadi. Ushbu lirik she'rlar “yuefu” janridagi she'riy yo'nalishni me'ros qilib olgan. Ular nafis go'zallik va g'amginlik hissi bilan farq qiladi, ularning asosiy mavzui sevgi va ayriliq. 詞 “Si” janrining oxirgi buyuk shoiri Sin Sitszya (1140-1207) hisoblanadi.

Keyingi o'rinlarda bevosita Tan davri shoirlarining she'rlari tarjimasiga bag'ishlasak. Ma'lumki, Tan davri she'rlari dunyoning juda ko'p tillariga tarjima qilingan. Jumladan, o'zbek tiliga ham. Lekin yana shuni ta'kidlab o'tmoq kerakki, o'zbek tilida chop etilgan bunday she'rlar oz. Agar mavjud bo'lsa ham ularning aksariyati rus tili vositasida amalga oshirilgan. Shu o'rinda o'zbek tarjimashunosi Qudrat Musayevning bir fikrini keltirib o'tish joiz bo'ladi: “U yoki bu asarning to'g'ridan-to'g'ri asliyatdan bajarilgan tarjimasida ham qator xato va kamchiliklarning sodir bo'lishi tabiiy hol. Chunki har bir adabiy

³³ Karimov A. Qadimgi xitoy she'riyati namunalarini tarjima qilish xususiyatlari. // Sharq tarjimashunosligi: tarixi, hozirgi kuni va kelajagi. – T.: ToshDSH, 2013. – B. 50.

meros boshdan-oyoq milliy xususiyatga burkangan bo‘ladiki, tarjimada bu fazilatni yuz foiz aks ettirish imkoniyatdan tashqari. Uning vositachi til orqali bajarilgan tarjimasida esa bu xato va kamchiliklar miqdori yana ham oshib ketadi: asarni vositachi til orqali o‘girayotgan tarjimon o‘zi yo‘l qo‘ygan xato va kamchiliklardan tashqari, asarni asliyatdan vositachi tilga tarjima qilgan san’atkor tomonidan yo‘l qo‘yilgan nuqsonlarni ham beixtiyor takrorlaydi”³⁴.

Ishimizga ma’lumotlar izlash chog‘ida internet tarmog‘ida Tsao Je, Li Bo va Du Fu ijodidagi she’rlarning o‘zbek tilidagi tarjimalarini topishga muvaffaq bo‘ldik. Yuqorida aytganimizdek, mazkur she’rlar bilvosita rus tili orqali bajarilganligi yaqqol ko‘zga tashlanib turmoqda. Masalan,

《登庐山五老峰》 *“Deng Lushan Wulao feng”*

庐山 东南 五老峰， *Lushan dongnan Wulao feng,*

青天削出金芙蓉。 *Qingtian xiaochu jin furong.*

Xurshid Davron ³⁵ qalamagiga mansub mazkur she’rning tarjimasi quyidagicha:

Lu-shan tog'ida janubi-sharqqa, Besh chol cho‘qqisiga qaraganim

Besh chol cho‘qqisiga uzoq qarayman -

Lu-shan tog'i, janubi-sharq tomonga.

Oltin chechak kabi yuksalmish cho‘qqi,

Ko‘rinadi boshi osmonda³⁶.

Avvalambor, she’rning sarlavhasi haqida gapiradigan bo‘lsak, birinchidan, bilamizki toponimik nomlar ma’no jihatdan tarjima qilinmaydi. Shu tufayli Ulaofeng cho‘qqisini “Besh chol” deb tarjima qilish noo‘rin. Agar tarjima qilish

³⁴ Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: Fan, 2005. – B. 33.

³⁵ Xurshid Davron (asl ismi: *Davronov Xurshid*, 1952-yil 20-yanvarda Samarqand shahri, Chordara qishlog‘ida tug‘ilgan) — o‘zbek shoiri, dramaturgi, tarixchi, yozuvchisi va tarjimoni. O‘zbekiston xalq shoiri (1999). Adabiyot sohasida beriladigan Mahmud Koshg‘ariy nomidagi Xalqaro mukofot (1989), Xalqaro "Oltin qalam" mukofoti (2009), Ozarbayjonning Mikoyil Mushfiq mukofoti (2013) bilan taqdirlangan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining deputati (2004). «Do'stlik» ordeni b-n mukofotlangan. (1997).

³⁶ "<http://n.ziyouz.com/adabiyot/jahon-sheriyati/xitoy-she-riyati/li-bo-701-762>"

mumkin bo‘lganda ham badiiylikka ahamiyat bergan holda “Besh chol” emas, balki “Besh qariya” deb tarjima qilish kerak bo‘lar edi.

Ikkinchidan, deyarli hech bir milliy xos so‘zli sarlavha tarjimaning tasviriyl usulidan foydalangan holda uzundan-uzoq izoh shaklida tarjima qilinmaydi. Ana shu izohtalab so‘zga quyida iqtibos berilsa, tarjima qoidalariga amal qilingan bo‘ladi. Bu yerda yana so‘z Ulaofeng cho‘qqisi xususida ketmoqda. Xitoycha izohli lug‘atlarda keltirilishicha, mazkur cho‘qqi Lushan tog‘ining janubi-sharqida joylashgan. Aynan shu sharhni sarlavhaga joylashtirmay, balki iqtibos bilan keltirilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Uchinchidan, 登 *deng* so‘zi xitoy tilida “qaramoq” ma’nosini emas, balki “chiqmoq, ko‘tarilmoq” ma’nolarini anglatadi.

Bevosita she’r matniga keladigan bo‘lsak, ko‘rib turganingizday xitoycha matnning yetti iyeroglifdan iborat bir satr, o‘zbek tilida ikki misra bilan ifodalanyapti. Bu qadimgi xitoy tili, she’riyatining o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqadi. Ya’ni xitoy tilida bitta iyeroglif bir nechta ma’nolarni ifodalab, bir so‘z yoki bir so‘z birikmasiga teng keladi. Shu bois o‘zbek tilidagi matn alifbo yozuvidan kelib chiqqan holda hajm jihatidan asliyatdan ancha keng bo‘lishi tabiiy.

Albatta, she’r tarjimasida so‘z qoshish hodisasini ko‘rishimiz mumkin. Bunda ma’no unchalik o‘zgarmasada, shakl o‘zgarishga uchragan.

Biz taklif etadigan tarjima varianti quyidagicha:

“Lushan³⁷ning Ulaofeng cho‘qqisi³⁸ga ko‘tarilgum”

Lushan tog‘i janubi-sharqida joylashmish Ulaofeng cho‘qqisi,

Tiniq osmonda ko‘rinar kesib olingan oltin nilufar misli.

³⁷ Lushan tog‘i Xitoyning Jyansi provinsiyasi, Jyujyang shahrida joylashgan bo‘lib, taxminan 300 kv.kmdan iborat maydonga ega tog‘ majmuasi va milliy istirohatgoh hisoblanadi.

³⁸Ulaofeng cho‘qqisi Xitoydagi Lushan tog‘ining janubi-sharqiy qismida joylashgan mashhur tog‘ cho‘qqisidir. Besh cho‘qqi ko‘rinishi bir-biriga yelkama-yelka turgan qariyalar shakliga o‘xshaganligi uchun qadimda shunday nomlangan.

Tan davri shoirlari Li Bo va Du Fu ikki do'stning ismini odatda birlashtirib, "Li va Du" deyishgan. She'riyatga romantizmni ilk bor Li olib kirgan bo'lsa, realizm elementlarini Du olib kirgan. Shu munosabat bilan mazkur bo'limimizda atoqli xitoy shoiri Du Funing ijodidagi she'r tarjimasini ham ko'rib chiqsak.

京师皆骑汗血马，	<i>Jingshi jie qi hanxuema,</i>
回纥喂肉蒲萄宫。	<i>Huihe wei rou Putaogong.</i>
控弦尽用阴山儿，	<i>Kong xian jin yong shanr,</i>
登阵常骑大宛马。	<i>Deng chen chang Dawan ma.</i>

Mana, mashhur arg'umoq,
Farg'ona unga vatan!
Qulog'i naq bambukning
Yaprog'idek tikkaygan.
Qara, qanday ko'rkam u,
Qanday uzun oyog'i!
Bo'ronlarni uyg'otar
Ko'tarilsa tuyog'i.
Senga yo'ldosh bo'lsa u,
Qo'rqmay yo'lga ketarsan.
Qancha uzoq bo'lmasin,
Manzilingga yetarsan.
Shunday oting bor bo'lsa,
Hamisha ko'ngling to'qdir:

Sen uchun bu dunyoda

Uzoq-yaqin yo‘l yo‘qdir!³⁹ (Xurshid Davron tarjimasi)

Du Funing Xurshid Davron tomonidan o‘zbek tiliga bajargan tarjimasini o‘qib, tarjima asliyatdan ham badiiy jihatdan chiroyliroq, ifodalibroq, ta’sirliroq namoyon bo‘lganiga amin bo‘lamiz.

2.3. Yangi davr xitoy she’riyati va badiiy tarjima

XX asr boshi hozirgi zamon xitoy adabiyoti rivojlanishining dastlabki bosqichi hisoblanadi. Qadimgi adabiy til “venyan⁴⁰”dan oddiy odamlarga tushunarliroq bo‘lgan til – “bayxua⁴¹” ga o‘tish adabiyot oddiy ommasi orasida yanada kengroq tarqalishiga olib keldi.

Ayni shu davrda ayrim adiblar tomonidan 1924-1925 yillardayoq ilgari surilgan shior – oddiy odamlar, ishchilar sinfiga tushunarli bo‘lgan adabiyotni yaratish shiori yangicha ohang kasb etdi.

Eng yangi davr xitoy adabiyoti kurtaklari 1919 yil “4 may” she’riyati bilan bog‘liq.

O‘z navbatida bu she’riyat “4 may” tarixiy “harakati” bilan uzviy bog‘liqdir. Millatning barcha taraqqiyparvar kuchlari bilan birga milliy va ijtimoiy uyg‘onish uchun kurashga “yangi adabiyot” arboblari ham qo‘shildilar.⁴²

“4 may” she’riyati namoyondalari tomonidan yaratilgan ilk asarlar “bayxua” so‘zlashuv tilidagi she’rlar bo‘lgan.

³⁹ <http://n.ziyouz.com/adabiyot/jahon-she'riyati/xitoy-she-riyati/du-fu-712-770>

⁴⁰ 文言 wenyan mumtoz xitoy (qadimiy xitoy) tili bo‘lib yozma til hisoblangan. Xitoy hududida XX asr boshlarigacha qo‘llanilgan. Ieroglif yozuvi so‘zning talaffuzini emas, balki asosan ma’nosini ifodalashi bois, venyan qadimgi xitoy tilining sintaksik va morfologik me’yorlarni saqlab qolgan. Shu sababli venyan XX asrga kelib xitoy og‘zaki so‘zlashuv tili bayxuadan keskin farq qila boshladi. 1919 yil 4 maydagi Xitoydagi talabalar Harakatidan so‘ng namoyishchilar talabiga ko‘ra venyan o‘z mavqe’ini yo‘qotdi va bayxuaga o‘tildi. Hozirgi zamonaviy xitoy tili ham venyandagi ayrim elementlarni saqlab qolgan.

⁴¹ 白话 báihuà kundalik, sodda til degani. Zamonaviy xitoy og‘zaki so‘zlashuv tilining rasmiy yozma tizimi. Xitoy yozuvining shakllaridan biri. Zamonaviy xitoy tilining leksik grammatik asosini tashkil qiladi.

⁴² В поисках звезды заветной. – М., 1988. – С. 3.

Yangi asr she'riyatiga o'z obrazlar tizimini, yangi ohanglar, bo'yoqlar va yangi leksikani olib kirdi. Eski shakl portladi va vayron bo'ldi. She'riyat yangi janrlar bilan boyib bordi.

Ayni bir adabiyot zaminida, tahminan bir vaqtda romantizm, realizm va simbolizm kabi adabiy yo'nalishlarning kelishi yuz berdi. Xitoyda (Sharqning boshqa mamlakatlarida ham) nisbatan qisqa vaqt ichida romantizm, realizm va simbolizmning tarqalishi XX asr xitoy adabiyoti G'arb rivojlangan adabiy oqimlari bilan uning aloqalari kuchayishi natijasida jadal sur'atlarda rivojlangani bilan izohlanadi.

20-30 yillar Xitoyda romantizm va simbolizm uchun ancha qulay davr bo'ldi, lekin realizm pirovard natijada xitoy adabiyoti uchun hal qiluvchi yo'nalishga aylandi.

Adabiy inqilob va "yangi madaniyat uchun harakat"ning faol arboblari Xu Shi (1891-1962), Chen Dusyu (1879-1942), Say Yuanpey (1868-1940), Li Dachjao (1889-1927), Syan Syuantun (1887-1939), U Yuy (1872-1949), Chjou Szojenlar (1895-1967) bo'lgan. Bularning hammasi XX asrning 10-20-yillarida "Sin sinnyan" va "Meychjou pinlun" jurnallar sahifalarida mamlakatning qutqarish yo'llariga bag'ishlangan maqolalarida milliy xarakter namoyon bo'ladigan konfutsiychilik, oila tizimi, ayollar mavqei va shaxslararo munosabatlarning an'anaviy etikasi tanqid qilib chiqishgan edi.

Ana shu davrda yashab ijod etgan xitoy shoiri Day Vanshu ijodidagi ramziylikni tadqiq qilayotgan yosh tadqiqotchilardan biri Gulnoza Ziyamuhamedovanning ishlaridagi she'r tarjimalari xususiyatlarini tahlilini amalga oshiramiz.

Day Vanshuning poetik dunyosi – bu avvalo "Mening xotiralarim" va "Qoralamalar" to'plamlaridir. Shoir xotiralarining inson ustidan hukmi haqida hikoya qiladi. Day Vanshu uchun "Mening xotiralarim" ana shunday xususiyat kasb etadi.

«我的记忆»

我的记忆是忠实甚于我的
忠实甚于我最好的友人，
它生存在燃着的烟卷上，
它存在绘着百合花的笔杯上，
它生存在破旧的粉盒上，
它生存在颓垣的木莓上，
它生存在喝了一半的酒瓶上，
在撕碎的往日的诗稿上，
在压干的花片上，
在凄暗的灯上，
在平静的水上，
在一切有灵魂没有灵魂的东西上，
它在到处生存着，
像我在这世界一样。

Wode jiyi

Wode jiyi shi chongshi shenyu wode
Chongshi shenyu wo zui hao de youren,
Ta shengcun zai ran zhe yanjuan shang,
Ta cunzai hui zhe baihehua de bi bei shang,
Ta shengcun zai pojiu de fenhe shang,
Ta shengcun zai tuiyuan de mumei shang,

*Ta shengcun zai he le yi ban de jiuping shang,
Zai sisui de wangri de shigao shang,
Zai yagan de huapian shang,
Zai qian yin de deng shang,
Zai pingjing de shui shang,
Zai yiqie you linghun mei you linghun de dongxi shang,
Ta zai dao chu shengcun zhe,
Xiang wo zai zhe shijie yiyang.*

Mening xotiralarim

Mening xotiralarim menga sodiq.
Xatto eng yaqin do‘st ham bunday sodiq bo‘lolmaydi!
Ular yonayotgan papirosda yashaydi,
Ular har qanday javobsiz savolda yashaydi,
O‘tib ketgan bahorning tushkun kayfiyatida yashaydi,
Buzilgan devorning changida yashaydi,
Ikkovlon oxirgacha ichmagan shishada yashaydi,
Yurakda yirtilgan she’rlarning qoralamasida yashaydi.
Ular chiroq yog‘dusida va daryo sukutida
Jon bor joyda va jon yo‘q joyda yashaydi.
Ular men qadam qo‘ygan hamma joyda yashaydi,
Va xotirada qalqib chiqadi⁴³. (G.Ziyamuhamedova tarjimasini)

Tarjimonning ushbu she’r tarjimasida mazmunni yana yorqinroq yetkazib berish maqsadida so‘z qo‘shish (“javobsiz savol”, “bahorning tushkun

⁴³ Ziyamuhamedova G. Day Vanshu ijodida ramziylikning aks ettirilishi. // Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari: filologiya, falsafa, tarix, iqtisod va siyosat, № 10. – T.: ToshDSHI, 2013. – B. 64-65.

kayfiyati”), soʻz olish (“bosib tashlangan gul bargi”), soʻz almashtirish (“olam, dunyo” soʻzi oʻrniga “men qadam qoʻygan hamma joyda”) kabi hodisalarni kuzatishimiz mumkin. Bunda asliyatdagi sheʼrning shakli oʻzgargan, mazmuni ham ayrim oʻrinlarda qisman oʻzgarishga uchragan.

Biz havola qiladigan sheʼr tarjimai quyidagicha:

Xotiralarim

Xotiralarim butkul sodiqdir menga
Nihoyatda sodiq mening eng yaxshi doʻstim
U yashaydir yonib turgan tamaki choʻgʻda
U yashaydir liliya suratli qalam, qadahda
U yashaydir toʻzigan kukun qutida
U yashaydir xaroba xoʻjagʻatzorda
U yashaydir yarim ichilgan sharob shishada
Yirtib tashlangan oʻtgan kunlarning sheʼr qoralamasida
Yerdagi bosib tashlangan gul barglarida
Xira chiroq nurida-yu, sokin suvning yuzida
Barcha jonli va jonsiz narsalarda
U borliq yerda yashaydir,
Xuddi men kabi bu yorugʻ olamda.

Mazkur tarjima deyarli soʻzma-soʻz amalga oshirilgan boʻlib, bunda muallifning uslubi saqlab qolingani. Undagi ramziylikning anglanishi esa oʻquvchiga havola.

Sheʼrning mohiyatini tushuntirish maqsadida G.Ziyamuhamedova quyidagicha izohni keltiradi: ““Mening xotiralarim” sheʼri horgʻinlik va mayuslik ruhi bilan sugʻorilgan. Albatta, xotiralar obʻekti sevgi bilangina cheklanmagan – u oʻzining soʻzdagi ifodasidan kengroq.

Xotiralar har qadamda poylab turadi, ulardan qochib qutilish mumkin emas: ular shoir har kuni duch keladigan narsalar (papiros, chang, chiroq, daryo, sharob,) she'rlarning qoralamasida yashaydi"⁴⁴.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, asarni xitoy tilidan va umuman har qanday tildan boshqa bir tilga tarjima qilganda, so'zlarning ko'p ma'noli ekani va muayyan bir matn doirasida bu so'zning qaysi ma'nosi voqelashayotganini va bu ma'nosi tarjima tilida qanday vositalar bilan ifodalanishini teran mulohaza qilish kerak. Shuni ham eslatib o'tish kerakki, lug'atlarda ko'rsatilgan ma'nolarning birortasi tarjima matni ma'nosiga mos kelmasligi mumkin. Bunday hollarda tarjimon ishga ijobiy yondoshib, bor bilim va ko'nikmalaridan foydalangan holda asarning ruhini qayta yaratishga munosib so'z yoki iborani izlab topishga intilishi kerak.

Tarjimashunos Ibrohim G'ofurov ta'kidlaganidek, she'riy tarjimada asliyatni aynan boshqa tilda aniq dunyoga keltirish mumkin bo'lmagan ish. She'riy tarjimada asar tarjima qiluvchining yuragida qaytadan dunyoga keladi. Bu endi garchi nomi tarjima bo'lsa-da, yangi asar, yangi asliyat, yangi badiiy hodisadir⁴⁵.

Yuksak badiiy yodgorlik darajasidagi she'riy asarlarning boshqa tillarga qilingan tarjimalarida ham shakl va mazmun, ruhiyatning saqlanishi tarjimondan katta mas'uliyat, chuqur bilim va har ikkala tilda ham keng qamrovli hamda ma'noli so'z boyligiga ega bo'lishni talab etadi. Bunda ikkala tilni mukammal bilishlik ham asliyat ham tarjimaning to'lqonli mustaqil asar darajasiga ko'tarilishiga xizmat qiladi.

⁴⁴ Ziyamuhamedova G. Day Vanshu ijodida ramziylikning aks ettirilishi. // Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari: filologiya, falsafa, tarix, iqtisod va siyosat, № 10. – T.: ToshDSHI, 2013. – B. 65.

⁴⁵ G'ofurov I. Tarjimonlik mutaxassisligiga kirish. – T.: Mehridaryo, 2008. – B. 44.

XULOSA

1. Tarjimon faqat she'r tarkibidagi so'zlarning mazmuninigina emas, shu bilan birga, uning ritmi, qofiyasi va intonatsiyasini ham qayta tiklashi lozim.
2. She'rni bir tildan ikkinchi tilga o'zgarishlarsiz tarjima qilish mumkin emas. Chunki har bir xalqning o'z she'riy tizimi, tarixan shakllangan nazm an'analari, she'riyatining o'ziga xos muayyan belgilari mavjud.
3. She'riy tarjimada asarni ko'ngildagiday chiqarish uchun asl nusxaga o'zgartirishlar kiritish joizdir. Agar bu jarayon she'rning mazmun va ruhiyatiga, intonatsiyasiga putur yetkazmasa, o'shandagina u foydali o'zgartirish bo'ladi.
4. Tarjimashunoslik qoidalariga ko'ra "sodiq bo'lish" prinsipiga ko'proq ahamiyat qaratilsa o'zbek tili odatidan yiroqlashib ketish mumkin, "ravon bo'lish" prinsipiga ortiqroq e'tibor berilsa asl matndan yiroqlashib ketish mumkin.
5. Xitoy tili xususiyatlaridan kelib chiqib xitoy tilidagi she'rlarning boshqa tillarga tarjimasida nazariy yo'llanmalar zarur.
6. Xitoy tarjimashunoslarining fikricha, 意美 *yi mei* "fikir go'zalligi" tarjimada eng muhim, 音美 *yin mei* "ritm go'zalligi" ikkinchi o'rin, 形美 *xing mei* "shakl go'zalligi" uchinchi o'rindagi unsurdir.
7. She'riy allegoriya (kinoya, majoz) va tasviriy boshlama xitoy xalq she'riyatining eng ajralib turuvchi badiiy xususiyatlaridan.
8. Qadimgi xitoy mumtoz she'riyati namunalarini o'zbek tiliga tarjima qilishda asosiy e'tiborni so'zlarning semantik ma'nolarini to'g'ri tanlashga qaratish lozim. Chunki qadimgi xitoy tili venyanda yozilgan she'rlardagi bir iyeroglif bir nechta ma'nolarni anglatadi. Mos ma'noni tanlash esa juda mushkul vazifa hisoblanadi.

9. O'rta asr xitoy she'riyati namunalarini tarjima qilishda she'riy janrlar xususiyatidan kelib chiqish, shoirning hayoti, ijodiy yo'nalishidan xabardor bo'lishi talab qilinadi. Bu davr she'rlarida metaforik o'xshatish, badiiy bo'yoqdorlik kuchli bo'lganligi sababli tarjimondan katta tasavvuriy mahorat talab qiladi.
10. Yangi davr xitoy she'riyatida romantizm, realizm va simvolika katta rol o'ynaydi. Bunday she'rlar tarjimasida tarjimonda insonlarning ruhiy holatini anglash, narsa-predmet, hodisalarning ramziyligi mohiyatini yaxshi tushunish singari psixologik qobiliyatning yetukligi va tarixiy, siyosiy-ijtimoiy xabardorlik zarur bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Rahbar asarlar

1. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. – T.: O'zbekiston, 2009.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.

O'zbek tilidagi manbalar

3. Alimbekov A. P.B. Shelli o'zbek tilida.// Sharq tarjimashunosligi: tarixi, hozirgi kuni va kelajagi. – T.: ToshDShI, 2013.
4. G'ofurov I. Tarjimonlik mutaxassisligiga kirish. – T.: Mehridaryo, 2008.
5. Hamidov X., Salimova Z. O'zbek tilidan turk tiliga she'riy tarjima muammolariga doir. // Sharq tarjimashunosligi: tarixi, hozirgi kuni va kelajagi. – T.: ToshDShI, 2013.
6. Ismatullayeva N. Yan funing 信达雅 *xindaya* tarjima prinsipi va uning xitoy tarjimashunosligidagi o'rni xususida.// Sharq tarjimashunosligi: tarixi, hozirgi kuni va kelajagi. – T.: ToshDShI, 2013.
7. Karimov A. Qadimgi xitoy she'riyati namunalarini tarjima qilish xususiyatlari. // Sharq tarjimashunosligi: tarixi, hozirgi kuni va kelajagi. – T.: ToshDShI, 2013.
8. Konfutsiy. Lun yu. Xitoy tilidan N.Ismatullayeva tarjimasi, D.Po'latova muqaddimasi. – T., 2013.
9. Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. –T.: Fan, 2005.
10. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. – T.: O'qituvchi, 1978.
11. Salomov G'., Komilov N. Tarjimon mahorati. – T.: Fan, 1979.
12. Sharq tarjimashunosligi: tarixi, hozirgi kuni va kelajagi. – T.: ToshDShI, 2013.

13. Xolbekova B. She'riy tarjima mezon.// Jahon adabiyoti. – T., 2009 11-son.
14. Ziyamuhamedov J. Xitoy tarjimashunosligi tarixidan.// Sharq tarjimashunosligi: tarixi, hozirgi kuni va kelajagi. – T.: ToshDShI, 2013.
15. Ziyamuhamedova G. Day Vanshu ijodida ramziylikning aks ettirilishi. // Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari: filologiya, falsafa, tarix, iqtisod va siyosat, № 10. – T.: ToshDShI, 2013. – B.

Xitoy tilidagi manbalar

16. 辞海. – 上海: 上海辞书出版社, 1999.
17. 韩鉴堂。中国文化。 – 北京: 北京语言大学出版社, 2003。
18. 李立成。诗经直解。 - 杭州: 浙江文艺出版社, 1997。
19. 李长之。诗经试译。 - 上海: 上海古典文学出版社, 1956。
20. 现代汉语词典。 – 北京: 商务印书馆, 2005。

Rus tilidagi manbalar

21. В поисках звёзды заветной. – М., 1988.
22. Гете. Об искусстве. – М., 1975.
23. Лилова А. Введение в общую теорию перевода. - М.: Высшая школа, 1985.

Internet saytlari

24. <http://www.gushiwen.org>
25. <http://n.ziyouz.com/adabiyot/jahon-she-riyati/xitoy-she-riyati>
26. <http://www.synologia.ru>
27. <http://wenku.baidu.com>